

**Murojaatlar bilan ishslash bo‘limi tomonidan
haftalik qilingan ishlar yuzasidan**
MA’LUMOT
(IV-hafta 25-28 aprel)

Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi ishonch telefoni (**99 353 93 54**)ga 25-28 aprel kunlari **172 ta** fuqarolar murojaat qildi. Murojaatlarning asosiy qismi imtiyozli toifaga ega bo‘lgan fuqarolarga Sog‘liqni saqlash vazirligidan kelgan “**sms**” xabarnoma yuzasidan hamda fuqarolarning **og‘zaki murojaatlari** bo‘ldi.

Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi ishonch telefoni va jamg‘arma manziliga hafta davomida **7(4%)** nafar imtiyozga ega fuqarolar e’tirozli **og‘zaki murojaatlar** qilishdi.

Shulardan:

Respublika ixtisoslashtirilgan urologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazida imtiyozli yo‘llanma bilan davolanayotgan **bemor davolanish sifati** yuzasidan;

Toshkent tibbiyot akademiyasi ko‘p tarmoqli klinikasida imtiyozli yo‘llanma bilan davolanayotgan **ikki nafar bemorlar shifokorlar qarovidan**;

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali klinikasida imtiyozli yo‘llanma bilan davolanayotgan **bemor shifoxona sharoitidan**;

Samarqand viloyati ko‘p tarmoqli tibbiyot markazida imtiyozli yo‘llanma bilan davolanayotgan **bemor shifokorlar qarovidan va davolash sifatidan noroziligini bildirib** Jamg‘armaning ishonch telefoniga fuqarolar **og‘zaki murojaat** qildilar.

Ushbu murojaatlar yuzasidan shifoxona mas’ullariga hamda xududiy bosh mutaxassislarga telefon orqali murojaatchilarning ma’lumotlari berildi, tibbiyot muassasa mas’ullariga bemorlar e’tirozi o‘rniligi yuzasidan tushuntirildi, **og‘zaki murojaatlar ijobjiy hal qilindi**.

Sirdaryo viloyati Sayxunobod tumanida istiqomat qiluvchi fuqaro Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi manziliga **otasining imtiyozli yo‘llanmasini boshqa shifoxonaga o‘tkazish bo‘yicha og‘zaki murojaat qilib keldi**. Fuqaroga mazkur masala yuzasidan **Sog‘liqni saqlash vazirligiga murojaat qilish kerakligi tushuntirildi**.

Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasiga Toshkent shahar Olmazor tumanida yashovchi imtiyozga ega fuqaro Jamg‘arma faoliyati yuzasidan ma’lumot olish maqsadida **og‘zaki murojaat** qilib keldi. Murojaat qilib kelgan fuqaroga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 28 iyuldaggi PQ-5199-sonli qarorida belgilangan imtiyozli toifaga kiruvchi shaxslarga imtiyozli yo‘llanma orqali barcha bemorlarga ko‘rsatiladigan tibbiy xizmatlar bepul bo‘lishi ya’ni Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi tomonidan Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan qoplab berilishi tushuntirildi.

Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi
Matbuot xizmati